

**MUZAFFAROVA XAYITGUL NESIBOVNA
MAMATQULOVA SHAXNOZA RUSTAM QIZI**



**BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA
TOPISHMOQLARDAN
FOYDALANISH**

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

Toshkent-2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUZAFFAROVA XAYITGUL NESIBOVNA

MAMATQULOVA SHAXNOZA RUSTAM QIZI

**BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA
TOPISHMOQLARDAN FOYDALANISH**

(O‘quv-uslubiy qo‘llanma)

JIZZAX-2023

UDK: 372.461.1(075)

BBK: 74.102.413

M - 84

X.N.Muzaffarova., Sh.R.Mamatqulova. **“Bolalar nutqini o‘stirishda topishmoqlardan foydalanish”.** / O‘quv-uslubiy qo‘llanma. / Toshkent, “LESSON PRESS” nashriyoti, 2023. – 108 bet.

Ushbu o‘quv - uslubiy qo‘llanma maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda tarbiyachiga va ota-onalarga yordam berish maqsadida tayyorlangan bo‘lib, qo‘llanmada topishmoqlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish haqidagi fikr-mulohazalar yoritilgan. Qo‘llanma bolalar bilan olib boriladigan ta’lim - tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil qilishda logoped va tarbiyachilarga ma’lum qulaylik tug‘diradi. Qo‘llanmada aks ettirilgan didaktik materiallar kichik yoshdagi bolalarning tafakkurini o‘stirishiga, nutqini rivojlantirishga, lug‘atini boyitishga, ularni atrof - muhit bilan tanishtirishiga yaqindan yordam beradi. Mazkur o‘quv - uslubiy qo‘llanmadan Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining logopedlari, tarbiyachilar hamda, ota - onalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir: X.S.Akramova - p.f.f.d. (PhD), dotsent

Taqrizchilar:

X.S.Akramova - p.f.f.d. (PhD), Maxsus pedagogika kafedra mudiri.

M.Tilakova - p.f.f.d. (PhD) Jizzax viloyat XXQT va MO instituti kafedra mudiri.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma “Maxsus pedagogika” kafedrasining 2023-yil 16-yanvardagi umumiy yig‘ilish majlisida muhokama qilingan va uning 6-sonli bayonnoma qarori bilan tasdiqlangan.

ISBN 978-9943-9469-2-7

© X.N.Muzaffarova., Sh.R.Mamatqulova.
© “LESSON PRESS” nashriyoti, 2023 yil

KIRISH

Ta'lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 14 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori misolida ko'rsak, mazkur kontsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi.

Farzandlarimizning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishi, kelajagi porloq, mustaqil fikrli inson bo'lib voyaga yetishi uchun Maktabgacha ta'limning o'rni beqiyos. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi sifatida bolaning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Bola shaxsining har tomonlama rivojida nutq ahamiyati katta. Agar bola yangi, aniq taassurotlar olib turmasa, uning harakatlari va nutqining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratib berilmasa, unda boladagi jismoniy va ruhiy rivojlanish orqada qoladi. Demak, nutqning to'g'ri tarkib topishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Lekin ba'zi sabablar tufayli bola nutqi rivojlanishi sustlashadi, orqada qoladi.

Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, ya'ni rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini takomillashtirishdir. Shu maqsadda nutq kamchiliklarini bartaraf etishda xalq og'zaki ijodi bo'lgan topishmoqlardan o'rinli foydalanish mumkin. Topishmoqlarning birinchi funksiyasi undan shartli mahfiy til sifatida foydalanishdan iborat bo'lgan va u o'zini mahfiy til bilan ilgari bevosita bog'liqligining qoldiqlarini saqlagan. Topishmoqlar bilan xotirani, ziyraklikni, zukkolikni sinab ko'rganlar va shu bilan bir vaqtda ular kundalik hayotda g'ayritabiiylik xususiyatini yaratganlar. Topishmoqlarda xalqning shoironaligi, uning hayotdagi - moddiy olamga muhabbati aks etgan. Topishmoqning an'anaviyligi unda o'xshatish va solishtirishlar tizimi mavjudligi bilan ifodalanadi. Predmet tavsifining ifodaliligi turli vositalar, shu jumladan epitetlar va o'xshatishlar bilan ham yaratiladi. Topishmoqlar har turli ta'lim va tarbiyaviy funksiyalarga ega.

Bolalarning topishmoqlarni topishga, dalillarni tanlashga ongli munosabatda bo'la olishlari ulardan mustaqil va original fikrlashni rivojlantiradi, bunday natija mazmunini har turli tarzda izohlash mumkin bo'lgan topishmoqlarni tushuntirishda namoyon bo'ldi. Mashg'ulotlarda ertak-jumboqlarni tinglagan har bir bola o'ylaymizki, o'ziga ijobiy xulosa chiqarib oladi. Tadqiqotda kuzatganimizdek, ertak-topishmoqlarni uyda, mahallada, bolalar bog'chalarida yanada ko'proq aytish, topish an'ana tusiga kirsa, bu bugungi yosh avlod ta'lim-tarbiyasida kutilgan natijani beradi. Rivojlanishida kamchiligi bor bolalarning barcha yosh guruhlarida nutq, bilish faoliyati, emotsional-irodaviy sohalaridagi nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyatlari logoped, tarbiyachi, psixolog va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik qilishi orqali ta'minlanadi.

Shu maqsadda mazkur qo'llanmadan tarbiyachilar, ota-onalar va maxsus pedagogika va maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari bolalar bilan ishlash jarayonida ijodiy foydalanishlari mumkin.

Topishmoq xalq og‘zaki she’riy ijodi janri sifatida

Xalq hamisha yoshlarning ziyrak, yaxshi xotirali, fikrlovchi inson bo‘lishini istagan. Agar xalq dostonlari, ertaklarini o‘qisangiz, asar qahramonlari turli sinovlardan o‘tishiga guvoh bo‘lasiz. Bu sinovlarning bir turi jismoniy kuch talab qilsa, ikkinchi xili aql, idrok bilan hal etiladi. Jumladan, shunday ertaklar borki, ularda ma’shuqa qizlar turmushga chiqadigan yigitlari oldiga shaxmat o‘ynash, jumboqli savollarga javob berish shartini qo‘yadilar. Ular orasida dunyoda eng og‘ir narsa nima?, Kim ertalab to‘rt oyoqlab, kunduzi ikki, kechqurun uch oyoqda yuradi? Dunyoda to‘rtta narsa yo‘q, ularni ayting. Nima uchun daraxt soyasida soyabon tutish kerak, kabi jumboqlar bor. Og‘ir narsa filga yoki kitga o‘xshaydi. Ammo savolning javobi - ot. Chunki faqat ot yugurganda, yer larzaga keladi. Yoki odam go‘dakligida to‘rt oyoqlab, yoshligida ikki oyoqlab, qariganda uch oyoqlab, ya’ni hasa bilan yuradi.

Dunyoda to‘rtta narsa yo‘q: osmonning ustuni, hovuzning qopqog‘i, oshpichoqning qini, ko‘rpaning yengi. Shuningdek, daraxt soyasida dam olayotgan odam qushlarning chiqindisidan asranish uchun soyabon tutadi kabi javoblarni berish kutiladi. Aslini olganda, bu sinovlarning hammasi o‘ziga xos topishmoqlardan iboratdir. Xalqimiz og‘zaki ijodining kichik janrlaridan biri topishmoqlardir. Bu janr ko‘proq bolalarni kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka o‘rgatadi. Ammo topishmoqlar folklorda faqat yosh bolalargagina taalluqli deb hisoblash to‘g‘ri emas, chunki topishmoq aytish va topish musobaqalarida kattalar ham qiziqish bilan ishtirok etaveradilar.

Hatto olim Z. Husainovanning ma’lumot berishicha, uzun qish kechalarida urchuq yigirgan va olacha to‘qigan xotinlar, Samarqand atrofida boshqa qishloqlardan to‘yga kelib xonadonlarga bo‘lingan mehmonlar o‘zaro chaldirmoq (tez aytish), jumboq, ya’ni topishmoq aytishishgan. O‘tgan zamonlarda topishmoqlarni qish faslida uzoq kechalarni zerikmay o‘tkazish uchun aytganlar.

Topishmoq aytgan odamning topishmog‘iga javob topilsa, u musobaqada yutqazgan, topilmasa g‘olib chiqqan hisoblangan. Har ikki holatda ham mag‘lub

bo‘lgan taraf yo g‘azal aytgan, yoki biron hayvonga taqlid qilib ovoz chiqargan, yo qo‘shiq kuylagan, yoki biron jismoniy ish qilgan: suv olib kelgan, qor kuragan, eshik supurgan va hokazo.

Ma’lumki, badiiy tasvir vositalari qatorida istiora san’ati ham muhim o‘rin egallaydi. Istiora so‘zi “ko‘chim” ma’nosini beradi. Agar biz do‘stga nisbatan: “Mening arslondek do‘stim bor”, - desak, o‘xshatish san’atini qo‘llagan bo‘lamiz. Ammo “dek” qo‘shimchasini va “do‘stim” so‘zini qoldirib, “arslonim bor” -desak, istiora san’ati yaratiladi. Topishmoqlarda ana shu san’at yetakchilik qiladi. Chunki biron narsa ikkinchi bir narsaga istiora san’ati vositasida o‘xshatiladi va eng muhim xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Masalan: “Yer tagida oltin (tilla) qoziq” topishmog‘ini olaylik. Bu topishmoq matnida yashiringan narsaning uchta muhim belgisi qayd etilgan:

1. Yer ostida ekani.
2. Oltinning rangida, ya’ni sariq ekani.
3. Qoziqqa o‘xshashligi.

Bu belgilar orqali biz topishmoqning javobi sabzi ekanini topamiz. Matndagi “qoziq” so‘zi esa istiora san’atiga misol bo‘lib kelgan.

Topishmoqlar shakl jihatidan nasriy va she’riy bo‘ladi:

1. Tomdan tuxum irg‘itdim. (do‘l) - nasriy topishmoq.
2. U yoqqa o‘tdim, bildingmi?

Bu yoqqa o‘tdim, bildingmi? Oq quvrayning¹ boshini,

Chertib o‘tdim, bildingmi? (shamol) - she’riy topishmoq.

Topishmoqlar xalq orasida jumboq, topmacha, top-top, cho‘pchak, matal, masala, ushuk atamallari bilan atab kelinadi. Ilmiy asarlarda “topishmoq” termini “top” buyruq fe’liga “ish” harakat nomini hosil qiluvchi shakl va “moq” qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan, deb ko‘rsatiladi. Natijada “topishmoq” so‘zi xalq og‘zaki ijodidagi alohida janr nomini bildirgan. Keyingi

¹ Oq quvray — cho‘l-dashtlarda o‘sadigan, mayda tikanli, bir yillik yovvoyi o‘t.

paytlarda shevalardagi yuqorida ko‘rsatilgan atamalar deyarli yo‘qolgan. Asosan “topishmoq” nomi saqlanib qolgan. Xalqimiz orasida “Kichkina dekcha, ichi to‘la mixcha” (anor), “Qoziq ustida qor turmas” (tuxum), “Otdan baland, itdan past” (egar) kabi mashhur topishmoqlar bor. Ammo “Qizil yulg‘unning tagida Qizlargul opam yotibdi” (qirg‘ovul) kabi u qadar keng ommalashmagan va topish anchayin mushkul bo‘lgan topishmoqlar ham bor. Ba‘zan bitta narsaga atab bir necha topishmoqlar yaratilgan:

1. Yer tagida xo‘l gavron.
2. Yer tagida yog‘li qamchi.
3. Ko‘prik ostida yog‘li hasip.
4. Uzun ichak, uchi tugunchak.

Bu topishmoqlarning hammasida topilishi lozim bo‘lgan narsa ilondir. Matnlarni diqqat bilan o‘qisak, ularning mohiyati jihatidan bir-biriga juda o‘xshash ekani aniq sezilib turibdi. Shuningdek, bitta topishmoq matniga bir nechta narsa javob bo‘lib kelishi ham mumkin. Masalan: “Uzun terak ichi kovak” topishmog‘ining javobi aslida qamish hisoblanadi, ammo bu topishmoqqa ba‘zan kuva, ba‘zan miltiq, ba‘zan mo‘ri javob sifatida qabul qilinaveradi: qamishning ichi kovakligi kuvaga, miltiqqa, mo‘riga o‘xshaydi. Lekin bari bir “Uzun terak, ichi kovak”ning haqiqiy javobi qamishligicha qoladi. Chunki kuva, miltiq, mo‘rining ichi kovak bo‘lgani bilan matndagi “Uzun terak” so‘zlariga u qadar mos kelmaydi. Topishmoq aytish musobaqasida yashiringan narsani aniqlash uchun bir necha savollar berish an‘anasi ham bo‘lgan. Javob axtaryotgan taraf aytuvchidan “joni bormi, yo‘qmi?”, “yeyiladimi?”, “o‘sadimi, usta yasaydimi?” kabi savollar berib narsa nomini topishga uringan.

Topishmoq aytishda shahar berish an‘anasi bo‘lgan. Javob topa olmagan taraf shahar berib, o‘zining mag‘lub ekanini tan olgan. Shahar so‘zi arab tilidan olingan. Z.Husainovanning yozishicha, bu so‘z e‘lon qilish, mashhur qilish, ma‘lum qilish ma‘nolarini anglatgan. Demak, shahar berish so‘zining asl ma‘nosi topishmoq javobini topa olmagan odamni elga ma‘lum qilish bilan izohlanadi.

Xalq orasida yashab kelayotgan topishmoqlar bir jumboqli va ko‘p jumboqli bo‘lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan sabzi, ilon javob hisoblangan topishmoqlar bir jumboqli. Ularda faqat bitta narsaning belgilari haqida ma’lumot beriladi. Shunday topishmoq namunalari ham borki, matnda bir nechta narsa topish talab qilinadi. Masalan:

- Tog‘da talaymonni ko‘rdim,
- Suvda sulaymonni ko‘rdim,
- Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim,
- Yumalab yotgan toshni ko‘rdim.

Bu topishmoqning javobi - bo‘ri, baliq, sumalak, toshbaqa. Yoki yuqoridagi sahifada keltirilgan dunyoda to‘rtta narsa yo‘qligi haqidagi topishmoq ham ko‘p jumboqli hisoblanadi.

Topishmoqlar haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan Z. Husainova ba’zi topishmoqlarda istiora san’ati qo‘llanmasligini, faqat arifmetik hisoblash orqali javob topilishini aytib o‘tadi. Masalan:

Bir to‘da g‘oz uchib borar ekan. Bir g‘oz ro‘para kelib:

“Ey yuz g‘oz, sog‘-salomat bormisiz” - debdi. Unda ulardan biri aytibdi: “Biz yuz g‘oz emasmiz, yana biz miqdori g‘oz bo‘lsa va yana bizning yarmimiz miqdori va yarmimizning yarmi bo‘lsa, u vaqtda sen qo‘shilsang yuz g‘oz bo‘lamiz”, - debdi. Havodagi g‘oz qancha ekan?

Javobi $36 (36+36+18+9+1)=100^2$

O‘zbek topishmoqlarining bugungi kunda bizgacha yetib kelgan matnlarini o‘rganish yaratilish davri jihatdan ikki xil namunalar borligini tasdiqlaydi. Ko‘pchilik asarlar an’anaviy topishmoqlardan iborat.

Ularning tili ham, yashiringan narsa ham aksari maishiy hayotda uchraydigan predmetlardan iborat bo‘ladi. Jumladan, mo‘ri, qozon, o‘choq, baqa, qushlar va hokazolar ana shunday namunalar qatoriga kiradi. Masalan:

² Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari. T., “Fan”, 1966. 29-bet.

“Yamog‘i bor, yirtig‘i yo‘q,
Qaychilamay qiygan,
Ignalamay tikkan” (ola sigir terisi).

XX asrda fan-texnika taraqqiyoti bilan yangi topishmoqlar ham yaratildi. Ularda kitob, radio, telefon, samolyot kabi narsalarni topish talab qilinadi. Masalan:

“O‘zi oddiy bir karnay,
Tili yo‘q, so‘zlar hay-hay,
Dunyoning to‘rt burchidan,
Xabar beradi tinmay” (radio).

Bunday topishmoqlarda fan-texnika yangiligi aks etgani sababli ular maktab o‘quvchilari uchun ham tavsiya etildi. Natijada, yangi topishmoqlarni ommalash-tirish ishlarida ham ma’lum ijobiy siljishlar amalga oshirildi. Yana topishmoq-larning yaratilishida an’anaviy namunalarning ahamiyati katta. Ko‘pincha ularning matniga bir oz o‘zgarish kiritish bilan yangi topishmoq vujudga kelgan. Xalq topishmoqlari badiiy jihatdan ham yuksak so‘z san’ati namunasi hisoblanadi. Ular badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishi jihatidan boy va rang-baranglikka ega. Avvalo aytish kerakki, shakl jihatdan topishmoqlar maqollar kabi ixchamdir. Ayrim olimlar ta’kidlashicha, topishmoq va maqollarning yaratilishi davr jihatidan bir-biridan u qadar farq qilmaydi. Shuning uchun ham asrlar davomida matn qayta-qayta ishlanganda topishmoqlarning badiiyati mukammal darajaga yetgan. Topishmoq janrining asosiy tasvir vositasi metafora, ya’ni istiora ekani aytil-di. Demak, askiya janrini iyhom san’atisiz, topishmoqlarni istiorasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu janrda xalq og‘zaki ijodidagi boshqa turlarda uchramaydigan tasvir vositasi bor. Hatto mazkur san’atning aniq nomi ham folklorshunoslikda qayd etilgan. Faqat ayrim belgilari bilan uni talmeh san’atiga yaqin deyish mumkin. Ma’lumki, talmih-nazar solmoq ma’nosini anglatadi. Unda xalq tarixidagi mashhur ismlar, joylar yoki vohalar eslab o‘tiladi. Masalan:

Agar Farhodning Shirin, bo‘lsa Majnunlarning Laylosi

Nasib etmish menga gulshan aro gullarning Ra'nosi.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan olingan Anvarning she'rida Farhod, Shirin, Majnun, Laylo talmeh san'atiga misol bo'ladi. Topishmoqlarda ham turli munosabatlar bilan turli ismlar uchraydi. Ularning tarixan mashhurligi qayd etilmagan. Ammo matnlarda bu ismlar, albatta, qandaydir ma'no kasb etadi va shartli ravishda talmih san'atiga yaqin turadi. Masalan: “Soriboy akam ichkari, Soqollari tashqari”. (sabzi, makkajo'xori).

Topishmoqdagi “Soriboy akam” bir tomondan sariq so'zini eslatadi va sabzi, makkajo'xorini topish uchun belgi vazifasini o'taydi. Xalq topishmoqlarida tazod (qarshilantirish) san'ati namunalari ham uchraydi: “Osh ichida tosh, Tosh ichida bosh”. (sumalak, toshbaqa). Bu matnda hatto qofiya san'atining murakkab ko'rinishi tarse' (misralardagi hamma so'zlarning qofiyalanishi) ham o'rin olgan. Topishmoqlarning matnida asosiy e'tibor, maqsad mazmunga qaratiladi. Ammo she'riy topishmoqlarda qofiyadosh so'zlarning tanlanishiga alohida e'tibor berilgan:

“Olti tegirmon toshi, Oltin egarning qoshi,

Uni topgan kishining, Yuz yigirmada yoshi” (tish).

E'tibor bersak, “tosh”, “qosh”, “yosh” faqat bir tovush bilangina farqlanuvchi shakldosh so'zlardan iboratdir. Topishmoqlardagi bunday fazilat ularning so'z san'ati talablariga to'liq javob bera olishini ta'minlaydi. Shunday qilib, topishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan biri bo'lib, mohiyat jihatidan millat vakillarining ziyrak, sinchkov, kuzatuvchan bo'lishlari uchun xizmat qilar ekan. Topishmoqlar xalq hayotida ma'lum e'tiborga ega bo'lgan narsa-predmetlar nomini topishga bag'ishlanadi va ahamiyatli hisoblanadi. Badiiy jihatdan mukammallik xalq topishmoqlarining fazilatlaridandir. Bugungi kun topishmoqlarida fan-texnika yangiliklari ham munosib o'ringa ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalar zukkoligini oshirishda topishmoqlarning roli

Ko'rkam xulqlarning eng ulug'i odamgarchilikdir. Yeyish, ichish, yurish, so'zlashish bilangina hech kim odamgarchilikni qiyomiga yetkaza olmaydi. Odamgarchilik esa o'zingdan kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat qilib, qo'ldan kelgancha odamlarga yordam berish bilan bo'ladi. Aqlli va ko'rkam xulqli bolalar faqat o'z foydalarinigina ko'zlamay, boshqalarga ham foyda yetkazadilar. O'zlariga munosib ko'rgan narsalarni boshqalarga ham munosib ko'radilar. O'zlariga istamagan narsani boshqalarga ham istamaydilar. Bir kishining boshiga qattiq ish tushsa, uning ko'nglini ko'tarib yordam beradilar.

Chevar xalq tomonidan ming yillar davomida to'qilgan hazil va o'yin topishmoqlarida xuddi shu masala o'rta tashlanadi. Har bir jumboq zamirida bolalarni aqlli, dono bo'lish barobarida ularni kelajakda sofdil, qo'li ochiq, sahiy, marhamatli bo'lishga da'vat yotadi.

Inson borki, aqlini tanib, ko'chaga chiqib, odamlar orasida yuradi, o'qiydi, mehnat qiladi. Yaxshi o'qish, ishlash, yashash orzu, umid, reja bilan risoladagidek bo'ladi. Agar insonda bir narsadan umid bo'lmasa, o'sha umid sari reja asosida intilmasa, kurashmasa u hech narsaga erisha olmaydi. Umid, reja to'g'risida berilgan: Odamzodda nima ko'p? jumboqni xuddi shu masalani yechib beradi.

Har bir topishmoq bolani imtihon qiladi, sinovdan o'tkazadi, aqlini charxlaydi. Shuning uchun har bir narsaga aql ko'zi bilan qaraydigan bola yutadi, hayotda ko'p narsalarga erishadi. Buning uchun bola: qilichdan o'tkir nima? - deyilgan tomishmoqqa ko'z deb javob berishga o'rganmog'i kerak.

Bolada aql, ilm, fahm-farosat bo'lsa-yu unda qat'iy fikr bo'lmasa ham aniq maqsadga erisha olmaydi. Har bir narsani o'ylab, fikr qilib, yetti o'lchab bir kesadigan bo'lsa uning har doim omadi kelaveradi. Shu sababga ko'ra fikrni xalq o'z jumbog'ida: Dunyoda nima chaqqon? - deb qo'yibdi.

Bolalar yana shu narsani bilib, dillariga jo qilib o'smoqliklari lozimki, odam qanchalik dono, aqlli, o'tkir ko'zli bo'lishidan qat'iy nazar unda ilm, hunar, mehnat ko'nikmasi bo'lmasa uning umri totli o'tmaydi, xor-zorlikda yashaydi:

Odamda nima bo'lmasa, nimali bo'lmasa, nima qilmasa yashay olmaydi? – deyilgan jumboqqa, - ilmli, hunarli, mehnatkash bo'lmasa, degan bola kam bo'lmaydi.

Bolalarning o'y, fikrlarini turli yo'llar bilan o'stirish xalqimizning, azaliy odati. Topishmoq mana shu maqsadda yaratiladi. Topishmoq bolani hisob-kitobga ham o'rgatadi. Olaylik, bitta oilada chol, kampir, ikki o'g'il, bir qiz yashaydi. Buni xalq topishmoq vositasida yechishni bolalar oldiga jumboq qilib qo'yadi:

Bir oilada cholu-kampir yashaydi. Ularning ikki o'g'li bor. Har bir o'g'lining bittadan singlisi bor. Bu oilada nechta jon yashaydi?

Har bir folklor janrining o'zida statistik usullari bo'ladi va u yoki bu she'riy kinoyalar ishlatiladi. Kinoya - ko'chirma ma'noda ishlatiladigan so'z yoki so'z birikmasi masalan, giperbola asosan polvonlar haqidagi xalq epik qo'shiqlarida ishlatiladi. Topishmoqlarning asosiy stilistik yaratilishi - kinoyadir.

Kinoya - narsa va hodisalarning u yoki bu belgisi o'xshashligiga asoslangan badiiy ko'chish bo'lib, u topishmoq janri uchun juda ham qo'l keladi. Ayrim topishmoqlarda metafora uchramaydi. Asosan metafora otlardan iborat bo'ladi.

-Oq dasturxon butun dunyoni qopladi (qor). Lekin topishmoqlarda fe'l va sifatlar ham uchrab turadi: -Tishi bor, lekin tishlamaydi (haskash).

Ko'pincha jonsiz narsa jonli qilib ko'rsatiladi. Bu jonlanishlar topishmoqlarga she'riy obrazlarni yaratishga yordam beradi. Masalan: chelaklar, cho'milgani ketgan aka - ukalar bilan taqqoslanadi. Jonsiz dunyoni jonlantirilishi topishmoqqa she'riylikni, ajoyib obrazlarni yaratishga yordam beradi. Har bir topishmoqning maqsadi - odamni hayron qoldirish darajasida, zamirida ajoyib tasodiflarni ko'rsatishdir, ular mantiq tarafidan bir - biriga zid.

Ular paradoks usulida tuzilgan. Aristotel bunga ahamiyat berib, shunday degan: -Hayotda borliq bilan ko'z oldiga keltirib bo'lmaydigan narsalar birlashgan.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, topishmoqlar bolalarga tanish, ularning o'y-xayollariga yaqin bo'lishi bilan jozibali bo'ladi. Bu esa bolani o'ziga tortadi, qiziqishini orttiradi. Mabodo shaftoli, o'rik, olma, behi, bodom, jiyda, anor, tut, uzum, anjir, do'lanalar qamrab olinadigan bo'lsa, kutilganidan ham yaxshi ish bo'ladi. Ayni zamonda endigina es-xushlarini jamlab kelayotgan kichkintoylarning tillarini burro, aqlarini dono bo'lishiga, yon-atrofdagilarga muhabbatli, tabiatga, ona-Vatanga sadoqatli bo'lib kamol topishlariga, bog'-rog'larni ko'paytirish, parvarish qilishlariga yo'l ochib bergan bo'ladi.

Ma'lumki, meva-cheva o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Buning uchun odamda qiziqish, hafsala, mehnat, qunt, sabr-toqat bo'lishi kerak. Agar insonda mehnat ko'nikmasi bo'lmasa, hech narsaga erishib bo'lmaydi. Eng avvalo inson - ota-ona, buvi-bobolar mehnatkash bo'lmoqliklari kerak. Negaki, bolani yoshligidan boshlab bir ishga o'rgatish, kichkina vaqtidanoq unga bir yumush berib, mehnatga odatlantirishdir. Tili ochilib, u yerga, bu yerga yura boshlagan vaqtida ham biror ish berish lozimdir. Unga beriladigan bu ish ahamiyatsiz, hatto ish nomi berishga loyiq bo'lmasa ham, undan keladigan foyda zo'rdir. Chunki unday ishlar bolada ishni sevish, ishga berilish sevgisini qo'zg'atadi.

Dunyoda yashashning asosi ish, mehnatdir. Bolaning o'zi erkin ishlasin, xatolari uchun o'zini javobgar deb sezsин. Ishlaganda, ishining natijalarini o'ylab ishlashga, fikr yuritishga, to'g'ri ishlashga, g'ayrat qilishga ko'niksin.

Tabiiyki, bu malakalar birdan hosil bo'lmaydi, balki asta-sekin yuzaga keladi. Lekin zaminni juda yoshlik paytdan qo'yish kerak. Bolada mehnat malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko'rsatib turishini kutib o'tirmay, o'zi eplab ketaveradi. Dunyoda yashash har kimning o'z g'ayrati va himmatiga bog'liq ekanini anglaydi.

Ishga o'rganish va o'rgatishda diqqat qilinadigan yana bir narsa - har ishni o'z vaqtida bajarishdir. Ishga odatlanish qanchalik muhim bo'lsa, ishni o'z vaqtida sifatli bajarish shu darajada muhim, balki undan ham muhimroqdir. Har ishni o'z vaqtida ishlamay kechiktirish ko'p ishlarning yig'lib qolishiga, ko'pining yuzaki,

sifatsiz ishlanishiga yoki butunlay qolib ketishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun har ishni o‘z vaqtida g‘ayrat va matonat bilan bajarish lozimdir.

Respublikamiz shahar va qishloqlarida ertakchi bobolar, momolar huzurlarida bo‘lganimizda keksalarning ko‘pchiligi cho‘pon, dehqon, pillakor, suvchi, bog‘bon bo‘ladi. Ular kichkintoylarga xalq og‘zaki ijodi asarlaridan aytib berish barobarida o‘z yumushlaridan ham bolakaylarni xabardor qilib borayotganliklarini, ochiqrog‘i o‘z ishlari bilan kichik do‘stlarini xabardor qilib borayotganliklarini bildik. Samarqandning qaychi qishlog‘ida istiqomat qiluvchi O‘tamurod bobo asli bog‘bon. U juda ko‘p ertak, maqol, topishmoq, masallarni biladi. U o‘zi bilgan bunday xalq og‘zaki ijodini qo‘lida qaychi bilan dov-daraxtlarga shakl berish jarayonida nabiralariga aytib beradi. Hadis-u hikmatli so‘zlarni ko‘p qo‘llaydi:

Inson bo‘lsang bog‘ qil, odam ko‘nglin chog‘ qil; Bog‘ni boqsang bog‘ bo‘ladi - daromading tog‘ bo‘ladi; qarasang - bog‘, qaramasang - tog‘; qarasang - qand yeysan - qaramasang pand yeysan; Bog‘ jamoli - bog‘bondan; Bog‘i borning-boli bor va boshqa maqollarning ma’no va mazmunini chaqib olgan bolalar bog‘bonchilik ishida boboga yordamchi, dastyor.

Ular shu soha bo‘yicha o‘nlab topishmoqlarni allaqachon yodlab, bir-birlariga aytib, tortishib, jumboqlarni topishib yuradilar.

Bu soha bo‘yicha meva-chevalarning rang-turlari ham bolalarga yaqin, tanish:

Beli bog‘li, cho‘tir choldir,

Qo‘ynida bor bujur kampir.

yoki

U yoni tog‘,

Bu yoni tog‘,

O‘rtasida

Sariq yog‘.

Bu xalqning yong‘oqqa bergan ta‘rifi, o‘xshatishi. Yong‘oqning tashqi ko‘rinishidagi o‘ydim-chuqurligini keksalar - chol bilan kampirga bog‘lab ta‘riflanishi kichkintoylarda o‘zlariga xos tabassum paydo qiladi. Bundan tashqari,

yong‘oqning tog‘-toshlarga qiyoslanishi ular uchun yanada jozibali. Bolalar yong‘oqning mazasini, ta‘mini ham yaxshi biladilar, u xuddi sariyog‘ kabi yoqimli ekanligini dildan his etadilar.

Yong‘oq azaldan eng suyuqli oziqalardan biri hisoblanib kelinadi. Bugungi kunda ham shunday. Uning tashqi ko‘rinishi, mag‘zi hamisha birdek, o‘zgarmasdir.

Xalq ijodkor, xalq to‘qiydi. Yong‘oq ta‘rifi, xalq bahosi asrlar osha o‘zgarib, zamon, davr bilan bog‘lanib boraveradi. Bizning davrimizda, fan va texnikaning rivojlanishi bois yong‘oq po‘stlog‘idan rang, yaprog‘idan esa spirt ishlab chiqilayotgani mana bu topishmoqning yaratilishiga asos bo‘lgan:

Mevasi bor yum-yumaloq,
Chaqsang mag‘zi xuddi sariyog‘.
Rang olinar po‘stlog‘idan,
Spirt chiqar yaprog‘idan.

Bugungi bola borki sharni yaxshi ko‘radi, o‘ynaydi. Bayram va boshqa tantanalarda shar o‘ynamaydigan bola, shar kirmaydigan xonadan qolmaydi. Ha, eng suyuqli o‘yinlardan biri shar o‘ynash, uchirishdir. Yuqoridagi yong‘oq ta‘rifiga sharning qo‘shimcha qilib aytilishi topishmog‘-u yong‘oqqa bo‘lgan bolalarning qiziqishlarini yanada oshirib yuboradi:

Po‘sti qattiq va cho‘tir,
O‘zi shardek dumaloq.
Ichida yashar totuv -
To‘rtta qadrdon o‘rtoq.

Jiyda o‘tmishda qand-qurs, meva o‘rnini bosgan. Jiyda daraxti bor odam har doim qishi bilan jiyda yeb, tirikchilik o‘tkazgan. Ha, totimli, yoqimli, ishtahali mevalardan biri jiydaning ta‘rifi va tahsini dillarda doston bo‘lgan. Va bu yoqimli yemish haqida xalq zo‘r mamnuniyat bilan yuzlab topishmoqlar ijod etgan. Uning ko‘rinishi, tuzilishi, o‘xshashi bolajonlar uchun juda qiziqarli:

Qopcha, qopcha ichida uycha,

Uycha ichida uncha.
Yoki:
O‘zi daraxt kerakdir,
Na o‘rik, na terakdir.
Tanasi juda tetik,
Lekin qiziq, o‘smas tik.
Mevalar kech pishar,
Dardga davo deyishar.
Yeyishga ham hamma bop,
Uyda bor: ustun, un, qop¹.

Mevalar to‘g‘risida O‘tamurod bobo va uning nevara-chevaralari hamisha takrorlab yuradigan anor haqidagi topishmoqlar ham hozirjavoblighi, ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Anor asrlar osha ijodkorlarga ijod sarchashmasi bo‘lib xizmat qilib kelgan. Anorning xushxo‘rligi, dorivorligi, ishtahani ochishi va bugungi kunda uning tanasi, bargi va po‘stlog‘idan dori-darmonlar, bo‘yoqlar ishlab chiqilishi topishmoqlar vositasida kichkintoylar ruhiga singdiriladi.

Har bir yangilikni, ijro etiladigan har bir topishmoqni yechishga shay turgan bolakaylar uchun anor nomi bilan aytiladigan jumboqlar ularni topqir bo‘lishdan tashqari bog‘bonchilik kasbini ham sevishga, o‘zlari ham katta bo‘lgach, O‘tamurod bobo kabi meva-cheva mirishkori bo‘lishga qiziqishlarini o‘stiradi:

Piyoladek keladi,
Katta va kichikligi.
Olcha suviga o‘xshar,
Nordon va chuchukligi.
Birini sanab ko‘ring,
Yuzga yaqin doni bor.

¹ Topishmoqlar. T., 1981., 290-bet.

Rivoyat qilishlaricha, Nushirvoni Odil bir kuni mulozimlari bilan ovga chiqibdi. Bir qishloqning chetidan o'tib ketayotib to'qsonlarga borib qolgan, yong'oq daraxti ekayotgan bir cholga ko'zi tushibdi. U hayron bo'libdi, chunki yong'oq yigirma yildan keyin mevaga kiradi-ku? So'ng choldan so'rabdi:

- Ota, ekayotganing yong'oq daraxti bo'lsa kerak?
- Ha, shahanshoh, ekayotganim yong'oq daraxti.
- U mevaga kirguncha yasharmikansan, shuni bilasanmi?
- Yo'q, bilmayman, a'lo hazrat.
- Unda nega ovora bo'layotirsan?
- Avlodlar ekanini biz yedik. Biz ekkandan avlodlar bahramand bo'lar degan

umiddaman.

Nushirvoni Odil bog'bon cholning javobidan mamnun bo'ldi va uni ming dirham oqcha bilan mukofotladi.

Bunday rivoyatlarni eshitib, topishmoqlar og'ushida kamol topayotgan kichkintoylar kelajakda, albatta, yaxshi mehnatkash, bog'bon, mehnatni, mehnat ahlini sevadigan, qadriga yetadigan insonlar bo'lishiga shubha yo'q.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq kamchiliklarini topishmoqlar asosida bartaraf etish

Topishmoq – deb, bir-biriga o'xshash ikki predmetdan jumboq yasalib, ikkinchisiga xos o'xshash belgilar asosida uni topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy topshiriqqa aytiladi. Topishmoqlarda ham ta'lim-tarbiyaviy fikrlar olg'a suriladi, ular vositasida insonning tafakkuri, fikrlash doirasi, topqirligi, nutqi, hozirjavoblik sifatlari o'stirilgan. o'tmishda aholi qishning uzun tunlarida to'planishib, maqol, matal, topishmoq, doston, ertaklar aytib vaqtni ko'ngilli o'tkazganlar. Bunday anjumanlarda bolalar ham qatnashgan. Masalan: “Bir parcha patir, olamga tatir” topishmog'ida eng to'yimli ozuqa - patir “Oy” ga o'xshatilgan.

Oy shaklining patir shakliga o'xshatilishi orqali bir obraz boshqasiga qiyoslanmoqda. Bolalarda obrazli tafakkurni rivojlantirishda topishmoqlarning

ahamiyati kattadir. Chunki aytilgan jumboqdagi sifatlash va o'xshatishlar orqali u tafakkurida juda ko'p obrazlarni gavdalantiradi, topishmoqdagi sifatlar bilan taqqoslaydi, agar unda ushbu obraz haqida tasavvur bo'lsa javobni topa oladi, bo'lmasa topolmaydi.

Bolalarning obrazli tafakkurini shakllantirishda topishmoqlardan foydalanishning quyidagi usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. "Topishmoq top!" metodi. Bu metodda bolalar kelishgan holda bitta mavzu tanlaydilar (masalan, sinf xonasida mavjud bo'lgan predmetlar yoki hammalariga ma'lum bo'lgan hodisalar yuzasidan) shu mavzu yuzasidan navbatma-navbat topishmoq tuzadilar.

Masalan, 1- topishmoq. Men bir narsa ko'ryapman, shakli to'rtburchak, o'zi yashil, biz unga yozamiz, chizamiz, bosh harfi "d" oxiri "a"! javobi: "Doska".

2- topishmoq. Men bir narsa ko'ryapman, shakli yumaloq, nur sochadi, shiftga osilgan, bosh harfi "ch" oxiri "q"! javobi: "Chiroq". Kabi yoki turli qiziqarli topishmoqlar aytish va topish. Masalan:

Uzun tumshuq siyohli, qo'sh kaltakdek oyoqli,
Egnida oq xalati, tugmasi yo'q, g'alati (laylak)
Nozikkina jondir u, dema, o'ch ginasi bor,
Yonida emas uning, nomida ninasi bor. (Ninachi)

Hozirgi kunda bolalar uchun mo'ljallangan turli multimediyali ko'rgazmalar asosida ham bolalar bilan topishmoqlar ustida ishlash mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini korreksiyalashda topishmoqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Topishmoq yoki xalq og'zaki usuli nafaqat bolalar nutqi balki ularning tafakkurini, fikrlash doirasini ham rivojlanishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining amaliyotdagi ahvolini o'rganar ekanmiz 5 - 6 yoshli bolalarga maxsus tashkillashtirilgan mashg'ulotlar asosida turli xildagi topishmoqlarni topish xususiyatlarini o'rgatishga harakat qildik; tasvirlovchi, kinoyali, salbiy tomonlarini taqqoslash, turli xildagi topishmoqlarni topish xususiyatlarida bolalar qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini

aniqlashga harakat qildik. Keyingi bosqichda bolalarda topishmoqlar orqali she'riy bog'lanishli nutqni o'stirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar asosida ishlar olib borildi. Bunda biz vaziyatli - o'yinli nutq mashqlarini ishlab chiqdik. Ularga topishmoqlarni topish orqali bolalarini bog'lanishli nutqini o'stirishga yo'naltirilgan ishlar olib borildi. Bolalar bilan ishlashda topishmoqlardan keng foydalaniladi, ularni taxmin qilishga taqqoslashga (qora - qarg'a emas, shoxi bor - ho'kiz emas, qanotli bor- qush emas(qo'ng'iz)) mavzuni bosqichma-bosqich topishga asoslangan topishmoq asosida fikrlashga o'rgatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni belgilarni guruhlash usulini qo'llashga o'rgatishga doir topishmoqlar ham o'rgatiladi (suyuqlikdir-suv emas, rangi oppoq- qor emas (sut)).

Topishmoqlarni taxmin qilishda bolalar xatolarining sabablari nimalarda uchraydi, degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

-Ko'pincha bolalar javob berishga shoshilishadi, ular so'zlarni ma'nolarini o'ylamay, aytilayotgan so'zlarning ma'nosini, o'xshatmalarni farqlamaydilar.

-Bolalar o'zlari taxmin qilayotgan ob'ektning bir nechta belgilarini (2-3) aniqlaydilar, ularni birlashtiradi, so'zlar o'rtasida aloqa o'rnatadi, lekin birgina juda muhim so'z topishmoqlarda noma'lum qolganda ham javob nomalumligacha qolaveradi.(daryoning tagida qanday tosh bo'maydi? "ho'l").

-Bolalar ba'zan chalg'ituvchi so'zlardan ataylab topishmoqdagi keltirilgan belgilardan birini tashlab ketadilar, agar u taxmin qilingan javobga "to'sqinlik qilsa" yoki uni aniq javobga mos keladigan so'zlari bilan almashtiradilar, ya'ni. javobga moslashtirilgan (oq dalaga, qora urug' ekdim (harf). Bu kungaboqar, chunki urug'i qora, doirasi sarg'ish degan javoblarni berishadi.

Topishmoqlarni yechishning ikki xil yo'li mavjud. Isbot topishmoqni e'lon qilish bilan boshlanadi (taxminlar). Buning ortidan uning dalillari, motivlari, dalillari (belgilari) tasdiqlanadi. Bu deduktiv usuldir. Isbot xususiyatlarni hisobga olish va ular o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish bilan boshlanadi, ya'ni mulohaza, taxmin esa bu fikrlashning mantiqiy natijasidir. Bu induktiv usuldir. Topishmoq savol bilan tugashini isbotlashning birinchi usuliga murojaat qilish qulayroqdir.

Tasdiqlashning ikkinchi usuli topishmoqlarni taxmin qilishdan iborat bo‘lib, unda bir qator belgilar keltirilgan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri savol bo‘lmaydi. Topishmoqlarni o‘rgatishga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar, qoida tariqasida, ikki qismdan iborat o‘tilsa maqsadga muvofiqdir:

Birinchi bo‘limda ob‘ektlarni ko‘rib chiqish faqat topishmoqda aks ettirilgan belgilarini ajratib olish bilan tashkil etiladi. Shu bilan birga, topishmoqning elementlari xarakterli xususiyatlarni tavsiflash, belgilash uchun ishlatiladi.

Darsning ikkinchi qismi topishmoqlarni topishga bag‘ishlandi. Bu erda logoped bolalardan nimalarni taxmin qilganini so‘raydi.

Dastlab, ikki yoki uchta o‘xshash darslar turli materiallar bo‘yicha o‘tkaziladi, keyingi darslar murakkablashishi mumkin. Shunday qilib, ob‘ektlarni o‘rganib chiqqandan so‘ng, mavzu yopilishi mumkin va ob‘ekt-taxmin faqat javobni motivatsiya qilishda namoyon bo‘ladi. Keyin dastlabki ko‘ruv ya‘ni aniq ravishda taqdim etiladigan narsalar haqida topishmoqlar tuziladi.

Bolalar uchun topishmoqni topish qiyinchilik tug‘dirganda, kattalar o‘sha ob‘ektni asosiy taraflarini, belgilarini yoki xususiyatlariga bog‘liq taraflarini aks ettiruvchi ko‘rgazmali qurollardan rasmlardan foydalanishi mumkin. Bolalarni topishmoqlar tuzishga o‘rgatishda mashg‘ulotlarni dastlab narsalarni tasvirlash bilan chambarchas bog‘liq ravishda olib boriladi. Bolalardan biriga narsani tasvirlashni taklif qiladi, qolganlari esa ushbu bola tomonidan tasvirlangan narsani nomini topishi kerak bo‘ladi. Avvaliga u barcha bolalarga bir oz qiyinchilik tug‘diradi, lekin bir, ikki mashq qilgandan keyin bolalar tushunchasi shakllanadi va topishmoq tuzishga mashq qila boshlaydi. Bunday faoliyatning eng muvaffaqiyatli shakllari o‘yinlardir, masalan, do‘konda o‘yini asosida “xaridor” narsani tasvirlab berganda va “sotuvchi” uni taxmin qilishi va nomini topishi kerak bo‘ladi.

“Pochtachi jo‘natma olib keldi” o‘yini bir oz qiyinroq bo‘ladi, unda har bir bola o‘z narsasini oladi, uni nomlamasdan yoki ko‘rsatmasdan tasvirlaydi. Narsa tasvirlanayotganda hammaga faqat taxmin qilingan narsalarni nomini aytish buyiriladi.

Topishmoqlar topish bilan bir qatorda bolalarga soʻzlarni takrorlatish, talaffuzida buzilgan tovushlarga doir soʻzlarni topish, soʻz boʻyigini oshirish qisqasi kundalik mashgʻulotda zarur korreksion ishlarni tashkil etish mumkin. Bolalar lugʻat boʻyigini oshirishda - Teskarisini ayt, Boʻyoqchi, Bogʻbon, Ha yoki yoʻq demang, Davom ettir, Ha yoki yoʻq kabi didktik oʻyinlardan foydalanish mumkin. Tadqiqot davomida tavsiya etilgan ana shunday oʻyinlardan misol keltiramiz.

Taʼlimiy oʻyin. “Hayvonlar haqidagi topishmoqni toping”.

Oʻyinga tayyorgarlik. Hayvonot bogʻiga sayrga borganda hayvonlarni kuzatish. Hayvonlar haqida suhbat.

Kerakli jihozlar. Topishmoqlarga doir hayvonlarning rasm va oʻyinchoqlari.

Oʻyin qoidasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar topishmoqda belgilarga qarab hayvonlar nomini topadi, ularni uy yoki yovvoyi hayvonligini farqlaydi, har bir topilgan javob va bir -biriga toʻgʻri qiyoslangan hayvon uchun bolalarda ragʻbat beriladi.

Oʻyinining borishi. Logoped bolalarga uy va yovvoyi hayvonlar turlari, farqi haqida maʼlumot beradi soʻng bolalarga topishmoqni aytadi. Toʻgʻri javob topilsa topilgan hayvon suʼrati oldiga oʻsha hayvon aks etgan oʻyinchoq qoʻyiladi. Bolalar topishmoqlarni topadilar, toʻgʻriligini isbotlaydi va ularni qiyoslaydilar.

Tanasida ninacha,

Joylashgandur koʻpincha.

Boʻlib olsa dumaloq,

Ushlolmaysan uni, yoʻq.

(Tipratikan)

Boʻridan u qochadi

Juda ham tez chopadi.

Quloqlari uzunroq,

Oʻzi juda ham qoʻrqoq.

(Quyong)

Kuchukday ko‘rinishi,
Pichoqday o‘tkir tishi.
Vahshiy hayvondir o‘zi,
Yeydi qo‘y-u va qo‘zi.

(Bo‘ri)

Hayvonlarning ichida,
Eng sodiq do‘st odamga.
Erta-yu kech poylaydi,
Qorovuldir uyimga.

(It)

Buqa emas shoxi bor,
Chol emas soqoli bor.
Sut beradi sigirmas,
U ham topilmay qolmas.

(Echki)

Bir otim bor ajoyib,
Ko‘rsang juda g‘aroyib.
Na oq emas, na qora
Ranglari ola –bula.

(Zebra)

Uzun quloq quyonmas,
Rangi kulrang bo‘rimas.
Tuyog‘i bor ot emas,
Uni topish qiyinmas.

(Eshak)

Topishmoqlar qanday yaratiladi? Har xil predmetlar real kinoyali dunyo qanday taqqoslanadi? Ma’lum bo‘lishicha, ro‘zg‘or predmetlari haqida gapirilsa,

kinoya sifatida uy hayvonlari, qushlar, baliqlar, o'simliklar, ba'zida esa odamlar ham qatnashadi. Qadimda bir donishmanddan:

- Insof nima? - deb so'radilar.

- Insof - odam o'ziga nimani ravo ko'rsa, boshqa kishiga ham shuni ravo ko'rishdir, - deb javob berdi donishmand.

- Eng yaxshi odam kim?

- Aqlli odam.

- Qanday kishini aqlli odam desak bo'ladi?

- Aqlli odam o'ylamasdan biror ishga kirishmaydi.

- Bilimni nima bilan bezaydi? Shijoatni-chi, sahiylikni-chi? - deb so'radilar.

- Bilimni - to'g'rilik, shijoatni - afv qilishlik va sahiylikni ochiq yuzlilik va shirin so'zlilik bezaydi.

- Insonning hayotda eng muhim orzu - tilagi nimalardan iborat?

- Sihat-salomatlik, farovon turmush va xotirjamlik.

Butun ta'lim-tarbiya mana shunga qaratilmog'i kerak. Bu yo'lda boy va rangbarang xalq og'zaki ijodiga suyanib ish ko'rish, shubhasiz, ham ota-onalar uchun, ham bolalar uchun chek-chegarasiz yutuqlar garovi hisoblanadi. Zero, inson olamga kelishi bilan alla eshitadi. Alla qo'shiqqa, qo'shiq esa ertak, maqol, masal, rivoyat, topishmoq, tez aytishga ulanib ketadi. Bularning hammasining zamirida inson-bola tarbiyasi yotadi. Bola ulg'aygani sari o'zi ham alla-qo'shiq aytadi. Ertak, maqol, masal, rivoyat, topishmoq tinglaydi va aytadi. Shular qanotida o'sib - ulg'ayadi. Demak, xalq og'zaki ijodi bola kamolotida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.³

Hozirgi pedagoglar, psixologlar, lingvistlar ilk bo'g'in - maktabgacha ta'limda bolaning ravon bog'lanishli nutqini o'stirish zarurligini ta'kidlaydilar, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uning

³ M. Jumaboev "Topishmoqlarning ilmiy ta'limiy ahamiyati" 3-4 bet

ogʻzaki nutqi rivojlanganligi hamda umumiy rivojlanganligi bilan bogʻliq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar lugʻat boyligini ilmiy - metodik adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ular maktabga kirish vaqtida amalda tilning grammatik va sintaktik shakllari tizimini egallagan boʻlishlariga qaramay, ularning nutqi yetuk boʻlmaydi. Bola lugʻat zahirasiining kambagʻalligi faqatgina uning faol nutqida koʻpgina leksik - grammatik kategoriyalar yoʻqligidan emas, balki soʻzlarni notoʻgʻri qoʻllash, ularning turli maʼnolarini hamda koʻchma maʼnolarini notoʻgʻri tushunishdan iborat.

Bizning maktabgacha taʼlim muassasalaridagi kuzatishlarimiz shuni koʻrsatadiki, bolalar uchun atrof - muhitdagi mavhum tushunchalar, masalan, yil, oy nima ekanligi kabi haqidagi topishmoqlarni topish qiyinlik qiladi. Eng murakkabi kinoya topishmoqlar hisoblanadi. Ular topishmoqning asl mohiyatini tushunmaganligi sababli notoʻgʻri javob beradilar. Topishmoqning faqat tashqi, yaqqol jihatini idrok qiladilar, koʻchma maʼnolarini koʻra bilmaydilar, badiiy obrazni his qilmaydilar, qochirimlarini tushunmaydilar.

Bola predmet belgilarini sanab oʻtishga asoslangan topishmoqlarni topa bilgan holda metaforik, koʻchirimli topishmoqni oddiy tasvirlash sifatida idrok qiladi.

Topishmoqlar aytish, eshitish hamisha maktabgacha taʼlim yoshidagi kichkintoylarning ezgu niyatlari bilan hamohang boʻlgan. Har bir topilishi kerak boʻlgan jumboq - bu davr bolalarini ham oʻylashga, fikr yuritishga, oʻzlariga xos yoʻsinda izlanishga, sezgir, jiddiy, topqir boʻlishga nisbatan mayllarini uygʻotgan. Chunki koʻp predmetli topishmoqlar bogʻcha bolalari uchun yanada qiziqarli boʻlgan. Bu holni butun mamlakatimiz boʻylab bolalariga, nabiralariga, qoʻshni bolakaylarga alla-qoʻshiq, ertak, maqol, topishmoq aytib berib yurgan ota-onalar, buvi-bobolar, mahalla ertakchilari huzurida boʻlganimizda aniq sezdik. Bu ish oʻz-oʻzidan yoki birdaniga koʻngildagidek chiqmaydi. Tinimsiz izlanish, bolakaylarni qiziqtirish, ularni topqirlikda bir-birlariga oʻrnak, ibrat qilib koʻrsatish tufayli erishiladi. Takrorlash, takrorlashlardan keyin bola jumboqlarni yechishga, bu

haqda o‘ylashga havasi keladigan bo‘ladi. Bu yerda shu narsani ham ta’kidlab o‘tish lozimki, bolalarga aytib beriladigan topishmoqlarning mavzusi yoshlarning yoshiga, qiziqishlariga yaqin bo‘lsa yana nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Mana bu jumboq bolalar uchun juda qiziqarli. Ammo bolalar bu jumboqni yechishda qiynaladilar. Rahim bobo jumboqni qayta-qayta takrorladi. Lekin yechimi yo‘q. Hamma hayron: “Dunyoda to‘rtta narsa yo‘q”. Kichkintoylar o‘zlaricha turli variantlarni aytib ko‘rishdi. Bobo ma’qullamadi... “yo‘q” - deb turaverdi. Axiyri Ra’no:

- Bobo, biz yutqazdik. O‘zingiz yechib bera qoling, - dedi. Rahim bobo:

- Bolalarim, - dedi u, - mana ochiq havoda o‘tiribmiz. E’tibor bering osmonning ustuni bormi? - so‘radi nabiralaridan. Bolalar:

- Yo‘q,- deyishdi.

- Botir boboning uyida hovuz bor. O‘sha hovuzning qopqog‘i bormi?

- Yo‘q, yo‘q.

- Hammangiz kechasi ko‘rpa ostida uxlaysizlar. Ayting-chi, ko‘rpaning yengi bormi?

- Yo‘q, yo‘q.

- Har bir xonadonda oshpichoq bor. Oshpichoqning qini bormi?

- Yo‘q, yo‘q.

- Xulosa qiladigan bo‘lsak: osmonning ustuni, hovuzning qopqog‘i, ko‘rpaning yengi, oshpichoqning qini yo‘q ekan-da, to‘g‘rimi, bolalarim?. Bolalar:

- To‘g‘ri, to‘g‘ri! – deb yuborishdi.

Bolalar orasida indamay jimgina turgan Rahim boboning nabirasi Zokir qo‘l ko‘tarib:

- Bobojon, men ham bitta topishmoq aytsam bo‘ladimi? – deb qoldi.

- Aytaqol, bolam! - dedi bobo uni erkalab boshini silar ekan.

- Ikki boshli, to‘rt oyoqli,

Ikki oyoqli, to‘rt quloqli,

To‘rt quloqli, orqasida bir dumi bor.

- E, bu topishmoqni o'tgan galda topganmiz. Bu ot, otga mingan odam, - deb yubordi Zulfiya.

Rahim bobo tomonidan aytilgan quyidagi topishmoqlarni bolalar o'ylab, xotirjamlik bilan yechishlari bizni behad shod etdi.

Bobo:

- U nimadir, yer yuzini suv olgan?

Bolalar:

- Yomg'ir bo'lar yer yuzini suv olgan!

Bobo:

- U nimadir, orqasida og'zi bor?

Bolalar:

- Tegirmondir, orqasida og'zi bor!

Bobo:

- U nimadir, suv ichida joni bor?

Bolalar:

- Baliq bo'lar suv ichida joni bor.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, inson esi, hushi, ziyrakligi, bilimdonligi bir masalani, bir ishni takrorlash, mashq qilish tufayli rivojlanib borishini Rahim bobo atrofida o'tirgan bolalar isbotlab berishdi. Rahim bobo aytgan topishmoqlari orasida oddiylari ham, murakkablari ham bo'ldi. Yillar davomida bobodan ertak, maqol, rivoyat, topishmoq tinglab tobora maktab yoshiga qarab borayotgan bolalarga aytilgan topishmoqlarning murakkablari ham bo'ldi. Boboning har bir gapga, har bir topishmoqqa alohida urg'u berib, xotirjam, alohida mehr, qiziqish bilan aytgan topishmoqlari asta o'z yechimini topa boshladi:

Uzun-uzun arg'amchi,

Buni toping, dilbarim!

Undan uzun arg'amchi,

Buni toping, dilbarim!

Opirmog'u sopirmoq,

Buni toping, dilbarim!

Igna uchi yaltiroq,

Buni toping, dilbarim⁴!

Boboning nabiralariga shirin tabassum bilan boqib, muloyimgina qilib “dilbarim!” deb qo‘yishi kichkintoylarning keksalarga nisbatan, bobolarga nisbatan mehrlarini jo‘sh urdirib yubordi. Ularda xuddi bobo kabi bilimdon, aqlli, sertabassum bo‘lishdek buyuk orzular paydo bo‘lganligini ularning chaqnab turgan muloyim ko‘zlaridan, chehralaridagi kulgilaridan payqab olish qiyin emas edi. Bu esa tarbiyaning yaqqol ko‘rinishi, ta’siri, oliy namunasi hisoblanadi. Topishmoq ham o‘z yechimini topa boshladi. Har kuni ertak, tomishmoq tinglab, gapirib, topib o‘rgangan bolalar jumboqning javobini berish uchun qo‘l ko‘tara boshladilar. Bobo shirin kulgi bilan qo‘l ko‘tarib turgan bolalarga bir-bir razm solib, Shohida degan qizaloqqa izn berdi. U yarim chuchuk tili bilan (chunki u «R» harfini y deb aytar ekan) javob bera boshladi:

Uzun-uzun arg‘amchi,

Yo‘l degani emasmi?

Undan uzun arg‘amchi,

Daryo degani emasmi?

Opirmog‘u sopirmoq,

Un degani emasmi?

Igna uchi yaltiroq,

Chiroq degani emasmi?

Topishmoq topgan Shohida qizchani bobo peshonasidan o‘pib, “Barakalla qizim, jumboqni to‘g‘ri topding. Tiling burro, aqling bundan ham ziyoda bo‘lsin!” deb rag‘batlantirdi. O‘tirishga yakun yasashdan oldin Rahim bobo o‘zlariga hamsuhbat bo‘lib o‘tirgan Tog‘ay bobo bilan bir-birlariga jumboq aytib ketishdi. Davrada o‘tirganlar jumbog‘-u javobni huzur qilib tingladilar. Ulardan ayrimlarini

⁴ Tomishmoqlar. T., 1981 yil, 179-bet.

namuna sifatida eslab o'tish mumkin. O'ylaymizki, kunda, kunaro keksalarning o'z nabiralarini to'plab, ularga ertak, topishmoq, maqol, masal aytib berishlari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Zero, zamon, davr talabi ham shunday. Quyida biz, o'zbek tilimizning xususiyatlaridan kelib chiqib, (bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda logopedik o'yinlardan foydalanish yo'llarini takomillashtirish borasida boy adabiy merosimizdan namunalar keltiramiz.

Bir parcha patir, olamga tatir.

(Oy)

To'rtdir uning oyog'i,
Temir mixli tuyog'i,
Manzilga yetishtirar,
Toshdan qattiq tuyog'i.

(Ot)

O'tirishi toyloqday,
O't yeyishi yilqiday.

(Chigirtka)

Kelib og'zin ochar, tishlab qochar.

(Ombir)

G'it-g'it deydi, ishlaydi,
Yerga kukun tashlaydi.

(Arra)

Qush emas qanoti bor.
Chiroyli savlati bor,
Uchsa lochin yetolmas,
Tolmas zo'r quvvati bor.

(Samalyot)

Asaldan shirin,
Zahardan achchiq

Birovni soʻldirar,

Birovni kuydirar.

(Til)

Koʻylagi qavat-qavat,

Tugmalari yoʻq faqat.

(Karom)

Tom ustida piyola,

Atrofida gul-lola.

(Oy va yulduzlar)

Joni yoʻq yuradi,

Joʻyablarni oralab,

Uychasini momiqqa,

Toʻldiradi saralab.

(Paxta terish mashinasi)

Chor quloq,

Chandir quloq,

Chor qulogʻi,

Shalpang quloq.

(Qozon)

Gʻoq-gʻogʻ-gʻoq,

Dimogʻi choq,

Suvda suzib yuraman,

Davru davron suraman.

(Gʻoz)

Qator-qator tosh terdim,

Jayron otni boʻsh qoʻydim.

(Tish va til)

Guli toʻrtta yarim oy,

Boshginamdan olar joy.

(Do‘ppi)

Kichkina dekcha,

Ichi to‘la mixcha.

(Anor)

Qizdirsang ishlar,

Kiyim tekislar.

(Dazmol)

Qorday oppoq,

Yungday yumshoq.

(Paxta)

Birlashtirib kiyimni,

Issiq tutadi sizni.

(Tugma)

O‘zim silliq tayoqman,

Keksalarga hamrohman.

(Xassa)

Nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari va guruhleri amaliyotida ixcham va qiziqarli folklor shaklida bo‘lgan topishmoq keng qo‘llanilmaydi. Topishmoqlardan foydalanishda logopedlar janr va til xususiyatlariga emas, balki uning mazmun jihatiga ustunlik beradilar. Topishmoqning asosiy xususiyati uning og‘zaki-mantiqiy topshiriq ekanligidir. Topishmoqni topish savolga javob berishni anglatadi, ya’ni bola murakkab aqliy operatsiyalarni bajaradi. Jumboqda aytilgan mavzu yashirin, shifrlangan va uni ochish usullari har xil bo‘ladi.

Topishmoqning bolalardagi kamchiliklarni tuzatish-rivojlantrish imkoniyatlari xilma-xildir. Ulardan eng muhimlari: topqirlik, zukkolik, idrok tezligini tarbiyalash; aqliy faoliyatni rag‘batlantirish; fikrlash, nutq, xotira, e’tibor, tasavvurni rivojlantirish; dunyo haqidagi bilim va g‘oyalar zaxirasini kengaytirish; hissiy rivojlanish. Bu, ayniqsa, nutqning umumiy rivojlanishi (NTR) buzilgan bolalarga

xosdir, chunki bu holda topishmoq bolaning to'g'ri nutqini tuzatish va shakllantirish uchun muhim amaliy manbaga aylanadi.

Mantiqiy topshiriq turiga va tuzilishiga ko'ra topishmoqlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi darajadagi topishmoqlarga quyidagilar kiradi: narsa, hodisa belgilarini (hajmi, shakli, rangi, ta'mi, tovushi, harakati, materiali, maqsadi sanab o'tishga asoslangan topishmoqlar; Bunday topishmoqlarni taxmin qilish elementar tahlil (xususiyatlarni tanlash) va sintez (ularni bir butunga birlashtirish) asosida amalga oshiriladi. Yetarli miqdordagi belgilar bizga kerakli aqliy operatsiyalarni bajarishga va mantiqiy muammoni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi.


Ikkinchi darajadagi topishmoqlarga quyidagilar kiradi: buyumning tasvirlari qisqacha berilgan, ularda 1-2 belgi bilan narsaning yaxlit qiyofasini belgilash zarur bo'lgan topishmoqlar; predmetlarni inkor etish yoki solishtirishga, predmet yoki hodisalarni solishtirishga asoslangan topishmoqlar. Bunday mantiqiy masalani hal qilish uchun bola unda ko'rsatilgan belgi bilan tanish bo'lishi, uni ajratib olishi, topishmoqda nomlanmagan boshqa belgilar bilan bog'lashi kerak. Bu predmet, hodisa haqida yetarlicha to'liq tushunchalar bo'lishi kerak.

Uchinchi darajadagi topishmoqlar metaforik topishmoqlardir. Ushbu topishmoqlarni topish uchun bolalar metaforaning yashirin ma'nosiga kirib boradilar, bir qarashda bir-biridan uzoq bo'lgan narsa va hodisalardagi o'xshashlik, umumiy xususiyatlarni aniqlaydilar. Bu ular uchu murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. Bolalarning bog'lanishli nutqini o'stirishni muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishlari nafaqat obektiv, balki subektiv shart - sharoitlarga ham bog'liqdir. Ana shu maqsadda biz tomondan ishlab chiqilgan rasmi topishmoqlar turkumini tavsiya etamiz. Bu topishmoqlar asosida bolalar tovush talaffuzi, bog'langan va yozma nutqi rivojlantiriladi.

Topishmoqni toping va bo‘yang

Katta chelak teshildi,

Ichidan suv to‘kildi.





ir-ir-ir javobi bo‘lar.....(yomg‘ir)

Boshida bor qo'sh o'roq,

Orqasida supurgi.



Kiyik emas u biroq,

Uyda boqilar ko'proq.





ir-ir-ir javobi bo'lar.... (sigir)

**Yo'rgakdagi malikam,
Tilla sochi bir tutam.**





ri- ri- ri uning nomi.....(makkajo'xori)

Maysazorda uchadi,
Guldan asal oladi.
G'iz-g'iz borar, g'iz-g'iz kelar,
Mehnatni u yoqtirar.





ri- ri-ri bu quvnoq..... (asalari)

Gheti gulli patir non,
Ichi to'la g'ij-g'ij don.




ar-ar-ar bu ajib..... (kungaboqar)

Og'zi yog'-u, tishi bor,
Taxtalarda ishi bor.




rra-rra-rra tishlari o'tkir..... (arra)

**Qizil, sariq va yashil,
Uch hil chiroq porlaydi,
Ogohlikka chorlaydi.**





or-or-or doim hushyor.....(svetofor)

**Qizil rangli tuguncha,
Ichi to'la kulchacha.**




or-or-or bilib oling bu..... (pomidor)

Baland temir uy yurar,
Burni tog'larni surar.



or-or-or nomi uning..... (eks-kav-a-to-r)



Yomg'irdan so'ng chiqadi,
Cho'tir qalpoq kiyadi.
Shamolni yoqtirmaydi,
Quyoshni chaqirmaydi.



ri- ri-rin bu ekan..... (qo'ziqorin)

Arra, barra, karrada



Yonma-yon kelar qara.



r-r-r-r-r-r javobidir... (r harfi)



Kichkinagina qopcha,

Ichi to'la mixcha.





or-or-or javobidir..... (anor)

**Novdalarning qulog'i,
Kislorodning bulog'i.**




ro-ro-roq javobidir..... (yaproq)

Olcha, gilos, gulda bor,
Anor, o'rik, tutda yo'q.




l-l-l-l javobidir..... (l harfi)

Xom ashyosi oddiy loy,
Ichida bor xo'plam choy.
E'zozlab kichik-katta,
O'pib qo'yar albatta.



la-la-la nomi uning..... (piyola)



Beli qilday, boshi xumday,
Mehnat qiladi tinmay.



li-li-li bu mehnatkash..... (chumoli)


Rangi har xil,

Nomi bir xil.





la-la-lam bu edi..... (rangli qalam)

Uyday joyni olar u,
Sichqondan-chi qo'r qar u.





○ ○ ○
il- il -il buchi bahaybat..... (fil)

**Ikki yaproq bir tanda,
Kezar yozda chamanda.**





la-la-lak bumi? g'o'zal..... (kapalak)

**Yettita zo'r rangi bor,
Beqasamdan yo'li bor,
Osmonlarda ishi bor.**





la-la-lak bumi? do'stim..... (kamalak)

Qanoti bor uchmaydi,
Quruqlikda yurmaydi,
Tangasi bor sotmaydi.





li-li-liq suvda suzar bu(baliq)

Doiraga o'xshaydi.
Xalqachasi yo'q biroq.
Teri emas to'r tortgan,
Yog'gan qorlari oppoq.





la-la-lak nomi uning..... (elak)

Erta bahor qirmizginam,
Tog'ga yoydi qizilgilam.





la-la-la bu gulning nomi..... (lola)

**Shamolda bor, bulutda yo'q,
Quyoshda bor, oyda yo'q.**




sh-sh-sh javobidir..... (sh harfi)

Kunduz kuni o'chirib,
Tunda yoqa olmaysan.





osh-osh-osh axir bu edi..... (quyosh)

Kichkinagina qumg'on,
O'tirib ko'zini yumg'on.




shu-shu-shuk nomi uning..... (mushuk)

Son sanoqsiz qilichli,
Uzun bo'yli bahodir,
Shovullar bexavotir.




ish- ish- ish nomi uning..... (qamish)

Bir ajoyib qushim bor,
Patlari ajib rangdor,
So'zim qaytarar takror.





ush-ush-ush bu quvnoq..... (to'tiqush)

Ish quroli qaychi va taroq, bo'lsa soz,
Bu kasb kerak qishin yoz,
Bosh egar barcha mijoz.





osh-osh-osh bu kasb edi.....(sartarosh)

Yozilganda dasturxon,
Hozir-u nozir shu on,
Chaqirilmagan mehmon.





shsha-shsha-shsha- uning nomidir..... (pashsha)

Sandiq to'la oq sadaf.




ish-ish-ish nomi uning..... (tish)

Nomida bor qush so'zi,
Ammo ucholmas o'zi.
Oyoqlari baquvvat,
Yuguradi bahaybat.





ush-ush-ush javobidir..... (tuyaqush)

Bir ajoyib raqam bor,
Raqamlar ichra ilg'or.
Yaxshi tirish yozmoqqa,
Sal o'xshaydi qarmoqqa.




esh-esh-esh bu raqam edi..... (besh)

O'n barmoqli uzun qo'l,
Xashak to'plar u nuqul.




ash-ash-ash ish quroli bu.....(xaskash)

Daraxt, butoq kovagin,
Oshyon qildingmi hoy qush?
Tunda qolib uyqudan,
Uchub u ov qilarmish.




ush-ush-ush uning nomi..... (boyqush)

Osmonda bor, yerda yo'q,
Sochda bor-u, boshda yo'q.




s-s-s-s javobi edi..... (s harfi)

O'zi silliq tayoqman,
Keksalarga hamrohman.



sa-sa-sa uning nomi..... (hassa)

Oqib ketar shaldirab,
Oynadayin yaltirab.





su-su-su uning nomi ekan..... (suv)

Shahar, daryo, tog'lari,

Sahro, o'rmon, bog'lari.



Hammasi unda jamdir,

Dum-dumaloq sharchada.





us-us-us nomi uning..... (globus)

Afrikadan kelgan mehmon,
Bolalarga juda yoqqan.
Po'sti sariq tilladay,
Ichi tilim qovunday.





si-si-sin nomi uning..... (apelsin)

Uchratasan qo'shaloq,
Qizil yuzli qizaloq,
Shakli kichik, dumaloq.





os-os-os bu meva nomi..... (gilos)

**Yesang achchiq ta'mi bor,
Sog'liginga u dastyor.
Vitaminlarga bisyor.**





so-so-soq uning nomi..... (sarimsoq)

U quyoshda toblangan,
Po'sti go'yo zirxlangan.
Boshida bor yashil toj.





as-as-as nomi uning..... (ananas)

Bu mo'jiza uzun uy,
Unda ko'plab yo'lovchi.
Poyabzali rezena,
Yoqilg'ida yuruvchi.





us-us-us bu transport..... (avtobus)

Ming dardga davo bo'lar,
Gullarda hosil bo'lar.
Zo'r bir ishtiyoq bilan,
Bolarilar yig'ishar.




sa-sa-sal uning nomidir..... (asal)

Uzum, sabzida bitta.
Mazza, lazzatda ikkita.



z-z-z javobi bo'lar..... (z harfi)



Qo'shig'i asli "qu-qu",
Tongni qarshi olar u.
Ko'zdan qochsin deb uyqu,
Jar soluvchi so'zi shu.



oz-oz-oz bu shovvoz..... (xo'roz)



Qora o'zi, qarg'a emas,
Shohlari bor xo'kiz emas.

Olti oyoq tuyoqsiz,
Uchadi chig'illaydi,





iz-iz-iz uning nomi..... (qo'ng'iz)

Qirq ko'ylagi bor,
Bir tugmasi yo'q.





oz-oz-oz ko'zing yoshlatar..... (piyoz)

**Ikki qo'shni ikki do'st,
Yonma-yon turishadi.
Yig'lashsa birga yig'lab,
Baravar kulishadi.**





o'z-o'z-o'z javobi bo'ladi..... (ko'z)

Yotar qoziqdek yerda,
Qator o'sadi safda.
Barglari ham yam-yashil,
Tusi tilladay asil.





zi-zi-zi bilib oling bu..... (sabzi)

Kunduzi ko'rpa yopar,
Kechasi ochiq yotar,
Sanay desam sanoqsiz,
Ushlay desam uzoqsiz.




uz-uz-uz osmonda yonar (yulduz)

Ayoz bobo novvot sotdi,
Olgan edim, qo'lim qotdi.





uz-uz-uz javobi bo'ladi..... (muz)

Oz qo'ysam "sol" - deydi,
Ko'p qo'ysam "ol" - deydi.





zi-zi-zi bilib oldim bu..... (torozi)

To'ni silliq tuki yo'q,
Ichi qizil ko'ki yo'q,
Uni cho'qolmas chumchuq.





uz-uz-uz axir bu totli(tarvuz)

Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo'z bola.





zu-zu-zum javobi bo'lar..... (uzum)

**O'choqda bor u bitta,
Cho'michda-chi u ikkta.**





ch-ch-ch javobidir..... (ch harfi)

Bir ajoyib ishxona,
Ichi doim qishxona.





ich-ich-ich javobidir..... (muzlatgich)

**Toyim bor kishnamaydi,
Yoz chog'i ishlamaydi.**




cha-cha-cha qishda kerak bu..... (chana)

Singlimga o'xshar o'zi,
Aslo yumilmas ko'zi,
Menga ovunchoq o'zi.





choq-choq-choq uning nomi..... (qo'g'irchoq)

Soch toladan ingichka,
Ipning ustida yurar,
Tinmay to'r savat to'qir.





cha-cha -chak nomi uning.....(o'rgimchak)

Fotima- zuhra urushdi,
Me'rosni teng bo'lishdi.





chi-chi-chi nomi uning..... (qaychi)

Ustida yashil to'ni,
Yoz-u qish yechmas uni.





cha-cha -cha uning nomidir.....(archa)

Birlashtirib kiyimni,
Issiq tutadi sizni.



cha-cha-cha nomi uning..... (tugmacha)



Yer tagida qizil ximich,
Loy yeydi erta-yu kech.



cha-cha-chang uning nomi..... (chuvalchang)


Jo'rada bitta,

Jo'jada ikkita.





j-j-j-j-j javobidir..... (j harfi)

Dum-dumaloq oq uydan,
Jajji qush uchib chiqar,
Olamni quchib chiqar.





ja-ja-ja bu jajji..... (jo'ja)

Yashash joyi Afrika,
Bo'yni uzun va tikka.



ji-ji-ji uning nomi..... (jirafa)

Gulsiz bo'lar mevasi,
Shirin-shakar donasi.





ji-ji-jir bu meva ekan..... (anjir)

Qirolicha marxamat,
Asl toshli chambarak,
Boshiga berar bezak.




○ ○ ○
oj-oj-oj bu ekan ajoyib..... (toj)

**"Qur-qur" etar u yozda,
To'yib uxlar ayoza.**




qa-qa-qa javobi bo'lar.....(qurbaqa)

Besh xonaga bir yo'lak,
Qo'linga loyiq ko'ylak.




qo-qo-qop javobi bo'lar..... (qo'lqop)

Polizda qizil bo'pti,
Boshida yashil do'ppi.



ay-ay-ay nomi uning..... (qulupnay)

**Ikki tomoni po'stloq,
O'rtasida saryog'.**



g'o-g'o-g'oq javobi bo'lar..... (yong'oq)

MUNDARIJA

Kirish	3
Topishmoq xalq og‘zaki she’riy ijodi janri sifatida.....	5
Maktabgacha yoshdagi bolalar zukkoligini oshirishda topishmoqlarning roli.....	11
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq kamchiliklarini topishmoqlar asosida bartaraf etish.....	17
Topishmoqni toping va bo‘yang.....	32
Foydalanilgan adabiyotlar.....	107

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Asqarova M. “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish”.T:,-“O‘zbekiston” 2001y.
2. Asqarova M., G‘.Qodirova “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish” T.:—O‘qituvchi 2001 y
3. Jo‘raev S., Qodirov F. “Kichkintoylar nutqini o‘stirish” T.: 2005 y.
4. Jumaboev M. “Topishmoqlarning ilmiy ta’limiy ahamiyati” 3-4 bet
- 5.Karimova V., Sunnatova R. “Mustaqil fikrlash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish” yuzasidan uslubiy qo‘llanma. - T.: SHarq 2000 y
- 6.Qodirova R.M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari”. –Sariyog‘och. 1998y.
- 7.M.Rasulova, D.Abdullaeva, S.Oxunjonova, “Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi” Toshkent-2004 yil.
- 8.Shodieva Q. “Nutq o‘stirish uslubiyoti” T.: 2008 y
- 9.Shodiyeva Q. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish” T:,- “O‘qituvchi” 1995y.
- 10.Shodmonova Sh. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” Toshkent-2003.
- 11.Topishmoqlar. T., 1981 yil, 179-bet.
- 12.Выготский Л. С “Мышление и речь”. М.: “Лабиринт”, 1996 г.
- 13.Жукова О. “Как помоч ребенку”. С.- Петербург, “Школа”, 2004г
- 14.Кожевникова Е.В., Баранова Н.Ю., Клочкова Е.В. “Как учит и развиват детей с нарушениуами развитиуа”. С.- Петербург, “Школа”, 2000г.

**MUZAFFAROVA XAYITGUL NESIBOVNA
MAMATQULOVA SHAXNOZA RUSTAM QIZI**

**BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA
TOPISHMOQLARDAN FOYDALANISH**

O'quv-uslubiy qo'llanma

Muharrirlar: R. Mustafayeva,. E. Eshqobilov

Nashriyot litsenziyasi

№1151-6360-a795-f48c-8506-4669-0037

21.05.2021.

Ofset qog'ozi. Bosishga ruxsat etildi 12.04.2023.

Format 60x84. Garnitura «Times New Roman».

Shartli bosma taboq 6,75

Adadi 100 nusxa. Byurtma № 9

ISBN 978-9943-9469-2-7

“Ruhsora servis” nashriyoti

Original maket **“Ruhsora servis”** nashriyotida tayyorlandi.

“Ruhsora servis” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Jizzax viloyati, Jizzax shahri

Qorabdoʻl ko'chasi, 18-uy

ISBN 978-9943-9469-2-7



9 789943 946927